



## **BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**To'remuratova Dilfuza Madenbaevna**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

*Ijtimoiy va gumanitar fanlarni masofadan o'qitish kafedrasí stajyor-o'qituvchisi*

*[dilfuza9097@gmail.com](mailto:dilfuza9097@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079421>

**Annotatsiya:** *Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini ta'minlashdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lim, bog'cha, aqliy tarbiya, maktabga tayyorlash.*

Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2707-sonli Qaror (2016-yil,29-dekabr), «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmon (2017-yil 30-sentabr), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida” gi 528-sonli Qarori (2017- yil, 19-iyul), “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi” kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o'rin egallamoqda. Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;



- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarning har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha ta'limning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Maktabga birinchi qadamni qo'yish har bir bola uchun hayotida katta o'zgarish bo'lib, bu jarayonda ota-onalar va o'qituvchilarning roli nihoyatda muhimdir. Maktab yoshiga yetgan bola uchun kundalik tartib butunlay o'zgaradi. U yangi muhitga moslashishi, darslarni tayyorlashi, yangi do'stlar orttirishi va yangi tajribalarga moslashishi kerak. Bu jarayonni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda harakat qilishlari zarur. Bolalarni maktabga tayyorlashni erta boshlash muhimdir. Ular bilan maktab haqida suhbatlashish, maktabda o'rganadigan narsalari, do'stlari va faoliyatlari haqida ma'lumot berish kerak. Bu orqali bolalar maktabga borishga psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar.

Bola maktabga qadam qo'yganda yaxshi va yomon narsalar haqida o'z tasavvuriga ega bo'ladi. O'qituvchi bolada qanday axloqiy tushunchalar mavjudligini va axloqiy fazilatlar qanday sharoitda shakllanganligini ham bilmog'i kerak. Shuning uchun ham muallim o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab, bolani tarbiyalashda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi darkor. Tarbiyaning samaradorligi ko'pincha oila va maktabning bolaga nisbatan bir xil talab qo'ya bilishiga bog'liq. Shuning uchun ham pedagogik axloqda o'qituvchi bilan ota-onalarning o'zaro munosabatlari, muomalasiga katta e'tibor beriladi, muallim oila bilan aloqa va hamkorlik qilmasdan turib, bolani axloqiy tarbiyalash vazifasini bajara olmaydi. Maktabda bolaga chuqur bilim, ta'lim-tarbiya mafkuraviy g'oya, milliy qadriyatlar, halol mehnat, biron bir kasb-hunarni egallashlari uchun mustahkam poydevor yaratishdek mas'ul vazifani zamonaviy talab darajasida amalga oshirish



lozim. Ularga ta’lim berishning ilg’or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o’quv-metodik dasturlar asosida bilim berish, o’quv jarayonlarini jahon andozalariga mos didaktik jihatdan ta’minlab, o’quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini tahlil qilish kerak.

Bolalarga maktabning qiziqarli va foydali joy ekanligini tushuntirish lozim. Ular maktabda yangi narsalarni o’rganish, yangi do’stlar topish va qiziqarli faoliyatlarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo’lishlarini bilishlari kerak. Bu ularni maktabga borishdan oldin motivatsiya beradi va qiziqish uyg’otadi. Bolalarni maktab muhiti bilan oldindan tanishtirish foydali bo’ladi. Maktabga tashrif buyurish, o’qituvchi va sinfdoshlari bilan tanishish bolalarni yangi muhitga moslashishiga yordam beradi. Bu orqali bolalar maktabga borishni oldindan tasavvur qilishlari va o’zlarini tayyorlashlari mumkin.

O’qituvchi pedagogik jarayonda asosiy figura, yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o’qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol Shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarga ta’lim-tarbiya berib, ularni umuminsoniy va milliy axloq mezonlarini o’zlashtirishini ta’minlaydi. Shu boisdan ham o’qituvchi bola uchun bir umr idel, ibrat va namuna bo’lib qolishi kerak. Afsuski, hamma o’qituvchilar haqida ham shunday deb bo’lmaydi. Kasbiy salohiyati yetarli emas, axloqiy fazilatlarida nuqsonli, o’zining dag’al muomalasi bilan yoshlarning ko’nglini o’qishdan sovitib, dilini o’rinsiz ranjitadiganlar ham uchrab turadi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta’sir etadilar.

Kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, yoshlarda kattalarning xatti-harakatlari, axloqiy fazilatlariga tanqidiy munosabatda bo’lish hissi kuchli bo’ladi. Shu jihatdan qaraganda tinch-totuv yashaydiganlarning oilalaridagi bolalar ham shu oilada mavjud bo’lgan axloqiy xislatlar: xushmuoamallik, odoblilik, kattalarga hurmat, kichiklarga g’amxo’rlik qilish, oila a’zolari o’rtasidagi o’zaro hurmat kabi ijobiy fazilatlardan namuna oladilar.

Pedagog olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, tarbiya samaradorligi yanada oshadi:

1. Maktab o’zining barcha ta’sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo’naltirsa;
2. O’qituvchilar jamoasi oila bilan o’zaro hamkorligi davrida o’zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to’g’ri tashkil etsa;
3. Ta’lim maskanlaridagi tarbiyaviy jarayonga tashkilotchi ota-onalar uyushtirilsa;



4. O‘qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o‘quv yillarida davom ettirilsa.

Demak, maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi bolalar tarbiyasida asosiy hal qiluvchi bo‘g‘in bo‘lib, bunda o‘qituvchi-tarbiyachilarning bir maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ishlari muammoni ijobiy hal etuvchi omil hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. X. Axmedova va boshqa... «Bolangiz maktabga tayyormi?» “Márifat-madadkor”. T., 2000y.
2. Bolalarni maktabga o‘qishga tayyorlash(ilmiy maqolalar to‘plami). T., O‘z PFITI, 1997.
3. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” T.,2018
4. “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim tashkilotlar uchun o‘quv dasturi. T.2018 y
5. Kutlimuratovna, Shamuratova Xurliman. "Psychological and pedagogical conditions for the formation of students of higher education institutions for teaching rhetoric to children of school age." International journal of recently scientific researcher's theory 1.3 (2023): 190-194